

Ona tili

I qism

3



novda
edutainment

M.E.Toirova

Ona tili

3-sinf


I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik
kengash tomonidan tavsiya etilgan.



Toshkent – 2023



@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.

UO'K: 811.512.133(075.3)

KBK: 81.2O'zb-922

T 60

M.E.Toirova

Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. /

M. Toirova – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 88 b.

Taqrizchilar:

Sh.Y.Muslimova –

Toshkent shahri 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M.M.Umarova –

Toshkent shahri 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9684-1-7

© M.Toirova

© "Novda Edutainment", 2023-y.

Shartli belgilar:



**Yodda
tuting**



**Guruh bo'lib
ishlang**



**Og'zaki
bajaring**



Bu qiziq!



**Yozma
bajaring**



**Uyga
vazifa**

Hurmatli o'quvchi!

Ona tiliga mehr Vatanga muhabbat kabi pok tuyg'udir.

Bu kitob ko'zlari chaqnoq, ilmga tashna Sizdek bolajonlarning nutq va lug'at boyligini o'stirishga, imloviy savodxonligi, to'g'ri yozishi, o'qish hamda husnixat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu kitobda grammatika qoidalarini oson o'zlashtirishingiz, grammatik tahlilni sodda, aniq yo'llar bilan amalga oshirishingiz va ijodiy fikrlashni o'rganishingiz uchun turli jadval, rebus, boshqotirma, diktant va test topshiriqlari berilgan.

Omad yor bo'lsin!





Aa	Bb	Dd	Ee	Ff
Gg	Hh	Ii	Jj	Kk
Ll	Mm	Nn	Oo	Pp
Qq	Rr	Ss	Tt	Uu
Vv	Xx	Yy	Zz	6
G'g'	Ww	4	ng	'

Ona tili

Aa

Nutq



1-mashq. Rasm asosida kichik hikoya tuzing.



Savol va topshiriqlarni bajaring.

1. Nutq nima?
2. Nutq nimalardan tashkil topgan?
3. Til va nutq o'rtasida qanday farq bor?
4. Og'zaki va yozma nutq haqida nimalarni bilasiz?
5. Hikoyangizga sarlavha toping.
6. Siz shu mavzuda qanday rasm chizgan bo'lardingiz?





Qoidani yod oling.

Nutq gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq gaplardan, gap esa so'zlardan tashkil topadi.



2-mashq. Kerakli bo'g'inni qo'ying.



BEK
BEKISTON
LIK



XONA
PAZ
NA



MON
DAK
GIMCHAK



SA
MUN
NA



3-mashq. Matnni diqqat bilan o'qing. Savollarga javob bering.

Davlat ramzlari Vatanning mustaqil davlatchilik an'analari bilan bog'liq bo'ladi. Mustaqil bo'lmagan xalqning davlat ramzlari ham bo'lmaydi.

Davlat ramzlari xalqni birlashtiradi, uni yagona maqsad sari safarbar etib, hamjihatlikda yashashga undaydi. Har qanday sharoitda ham o'z yurti manfaatlarini uchun kurashishga da'vat etadi.



Davlatimiz ramzlariga nimalar kirishini bilasiz-a? Albatta, ularga O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi kiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash qadr-qimmatini, mamlakatiga va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir.

1. Davlat ramzlari deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat ramzlariga nimalar kiradi?
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ta'riflab bering.
4. Matndan "Nima?", "Nima qildi?", "Nima qiladi?" so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni toping.





4-mashq. Vazifani ikki guruhga bo'lingan holda bajaring. Quyidagi matn va gaplarni o'qing.

1

Alohida gaplarni yozadi.

2

Matnni topib yozadi.

1. Kitob o'qish jarayonida insonning miyasi faol ishlaydi.
2. Men kelajakda shifokor bo'lmoqchiman.
3. Olimpiada nima ekani, unda qanday sport turlari bo'yicha bellashuvlar bo'lishini bilasiz. Vatanimiz bayrog'ini yuqoriga ko'targan yurtdoshlarimizni ham taniysiz. Olimpiada o'yinlarida yuqori o'rinlarni egallagan sportchilarimizga hamisha olg'a, deb qolamiz.
4. Ko'p o'tmay, yomg'ir sharros quydi.
5. Soliha besh yoshidan musiqa olamiga qadam qo'ygan.





5-mashq. “*Bizning oilamiz*” mavzusida kichik hikoya tuzing va yozing. Hikoyani nimalardan tuzdingiz? Siz fikringizni qanday shaklda bayon qildingiz?



Qoidani yod oling.

Har bir **gap** biror tugallangan fikrni ifodalaydi. Gapdagi soʻzlar maʼno jihatdan bir-biriga bogʻliq boʻladi.



Sizningcha, nutqimizda unli tovushlarni koʻproq ishlatamizmi yoki undoshlarnimi? Balki nutqimizda unli va undosh tovushlar baravar ishlatilar?

Buni bilish uchun oddiy amaliyot oʻtkazing. Istalgan matndan yuzta tovushdan iborat bir nechta soʻzni tanlaysiz va nechitasi unli, nechitasi undosh tovush ekanligini sanaysiz. Shunday qilsangiz, yuzta tovushdan taxminan ellik sakkiztasi undosh, qirq ikkitasi esa unli tovush ekanini aniqlaysiz. Demak, nutqimizda undosh tovushlar koʻproq ishlatiladi.





6-mashq. Matnni diqqat bilan o'qing. Matnga sarlavha qo'yib, ko'chiring.

Men tarix, matematika va jismoniy tarbiya fanlariga qiziqaman. Sport – jon-u dilim. O'g'il bolalar futbolni yoqtirishadi. Ular qatorida men ham. Mahallamizda sport maydonchasi bor. U yerda o'rtoqlarim bilan maza qilib futbol o'ynaymiz. Men har o'yinda raqib darvozasiga to'p kiritaman. O'yinim bilan jamoadoshlarimni xursand qilaman. Orzum – kelajakda kuchli futbolchi bo'lib, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish.



Siz kelajakda kim bo'lishni orzu qilasiz?

Orzu, kelajak so'zlariga ma'nodosh so'zlar toping.

Matn



7-mashq. Quyidagi soʻzlardan foydalanib, gaplar tuzing. Shu gaplar ishtirokida matn yozing.

YOSH KITOBXON

ZIYOLI

SPORT ZALI

KOMPYUTER



Qoidani yod oling.

Matn nutqning yozma shaklidir. Matn gaplardan tuziladi. Matndagi gaplar mazmun jihatdan oʻzaro bogʻlanadi.



**Eslab qoling.**

Birinchi globusni bobokalonimiz
Abu Rayhon Beruniy yasagan.



Birinchi avtoruchka 1880-yilda
Amerikada kashf etilgan.



Birinchi xarita miloddan avvalgi 2300-yillarda
qadimgi Mesopotamiyada ishlangan.



Sharikli ruchkani 1945-yilda
Berush ismli muhandis ixtiro qilgan.



Sinf doskasi ilk bor XIX asrda
paydo bo'lgan.

**8-mashq. Savollarga javob bering.**

1. Matn nima?
2. Matn nimalardan tuziladi?
3. Matn va gap o'rtasida qanday farq bor?
4. Gaplarning oxiriga qanday tinish belgilari qo'yiladi?



9-mashq. Kuzda tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar,
dehqon va bog'bonlarning yumushlari haqida
kichik hikoya tuzing.



10-mashq. Rasmi hikoyani o'qing.

Malika



dan keldi-yu,

onasiga uy ishlarida yordam berdi. Keyin



sidan



larini olib, darslarini tayyorlay

boshladi. Ona tilidan "Hayvonot bog'i" mavzusida matn

tuzish kerak. O'sha kuniyoq Malika dadasidan



ga olib borishini iltimos qildi. Ular chipta

sotib olib, bog'ga kirib borishdi. Avval



larni, keyin



larni tomosha qilishdi. So'ngra



ni tomosha qilishdi.



ning rang-

barang, chiroyli ekanini,



ning suvda suzishini,

oq va qora



larni, oq, kulrang va momiqqina



ni

ko'rib zavqlanishdi.



ning quloqlari uchburchak, biroz cho'zilgan, uchi o'tkir, uzunligi 15 cm gacha bo'lar ekan. Tulkining umr ko'rish muddati 3 yildan 10 yilgacha, lekin qafasda tulki 25 yoshgacha yashashi ham mumkin.

Bu ma'lumotlar Malikaga chiroyli matn tuzishi uchun yetarli bo'ldi.

Hikoyadagi kim? va nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni ko'chirib yozing.



11-mashq. Siz ham "Hayvonot bog'i" mavzusida o'z hikoyangizni tuzing.

Tuzgan hikoyangizdagi gaplarni jadvalga namunadagidek joylashtiring.

Namuna:

Kim?	Qanday?	Nima?	Nima qildi?
Malika	chiroyli	matn	tuzdi
...	...	...	...



12-mashq. Berilgan so'zlar asosida gaplar tuzing.

Qushlar, rangli, sog'lom, suv, bolalar, topshiriq.



13-mashq. Matnni o'qing.

Oq ayiq Arktikada, sovuqda yashaydi. Tanasi qordek oppoq jun bilan qoplangan. Erkak ayiqning uzunligi taxminan uch metr, og'irligi olti yuz sakson kilogramm bo'lsa, urg'ochi ayiqniki ikki metr, og'irligi esa ikki yuz yetmish kilogramm bo'ladi.

Yangi tug'ilgan oq ayiq bolasi yengil, to'rt yuz ellik gramm bo'ladi.

Oq ayiq suvda chaqqon suzadi. Uning yana bir xususiyati – u uzoqdan hidni yaxshi sezadi.



Matndan “Qanday?”, “Qanaqa?”, “Nechta?”, “Qancha?” so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni topib ko'chiring.

Namuna:

Qanday? Qanaqa?

oppoq

...

Nechta? Qancha?

uch metr

...

Tovush va harflar



14-mashq. O'qing.

Kitoblar sayyorasi

- **Uchar** kemaga o'tiramiz-da, **kitoblar sayyorasiga** yo'l olamiz.
- Bu haqiqiy mo'jiza-ku! **G'aroyib** sayyoraning yulduzlari ziyo socharkan. **Tog'larida hikmat** bo'y cho'zarkan. **Buloqlarida** bilim qaynarkan.
- Kitoblarni qancha ko'p o'qisak, **aqlimiz** shuncha charxlanadi, **fikrimiz** kengayadi.
- Kitoblarning **eng** saralarini tanlab, **Yer** sharidagi kichkintoy do'stlarimizga olib boramiz.

D. Kamoljonova

Savol va topshiriqlarni bajaring.

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chiring va ulardagi tovushlar sonini aniqlang.
2. Tovush nima? Harf nima?
3. Tovush va harf o'rtasida qanday farq va o'xshashlik bor?
4. Qanday harf birikmalarini bilasiz?
5. Unlilar yakka o'zi so'z hosil qiladimi?
6. Undoshlar-chi?





Qoidani yod oling.

Tovushlar yozuvda harflar bilan ifodalanadi.

Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda havo og'izdan erkin o'tadi. Unli tovushlar ovozdan tashkil topadi. Unli tovush bo'g'in hosil qiladi.



Undosh tovushlarni talaffuz qilganimizda havo og'izda to'siqqa uchraydi.




15-mashq. O'qing. So'zlarning talaffuziga e'tibor bering. Ularni o'z o'rniga qo'yib, maqollar tuzing.

- ① Shirin, boldan, so'z, shirin.
- ② Choh, qazima, birovga, tushasan, o'zing.
- ③ O'lchab, bir, yetti, kes.
- ④ Ichi, usti, qaltiroq, yaltiroq.

Har bir so'zda nechta tovush va nechta harf borligini aniqlab, gaplar tuzing va yozing.



16-mashq. Rasmdagi narsalarning nomini ayting.



Har bir soʻzdagi tovushlar va harflar sonini aniqlang. Ularni namunadagidek yozing.

Namuna: gilam – (5 ta tovush, 5 ta harf).

Rasm asosida kutubxona muhitini aks ettiruvchi kichik matn tuzing va nomlang.



17-mashq. Soʻzlarni koʻchiring. Ularning aytilishi va yozilishini taqqoslang.

1. Shavkat, baho, havo, davlat, bahor, Kamol.
2. Maktub, avlod, oftob, ozod, ajdod, choyshab.
3. Chumchuq, supurgi, tutun, kumush, tuxum, Umid.

Soʻzlarning yozilishini yodda tuting.



18-mashq. Matnni oʻqing.

Oyning uyi



Mushtariy yaqinda besh yoshga toʻladi.

U **tongdan** shomgacha buvisini savolga tutadi:

– Yaqinda **tugʻilgan** boʻlsam, keyin katta qiz boʻlaman-a?!

– Albatta-da, bolam. Hozir ham kattasan.

– Unda nimaga maktabga **chiqmayapman?**

– Yana **ozgina** bor, – buvisi koʻrsatkich va bosh barmoqlarini birlashtirib koʻrsatdi. – Aqling bilan birga **boʻying** ham oʻsadi. Oʻshanda **osmondagi** oyni ham olasan.

– Osmon oyning uyimi unda?

– Ha, topding.

– Yoʻq, buvijon, kecha bogʻcha opam aytdi, kim uyini **yoʻqotib qoʻysa**, yigʻlarkan. Men oyning xafa boʻlishini

xohlamayman. Oyimdek bo'lganimda, qo'lim yetsa ham unga tegmayman. **Salomlashib** qo'yaman, xolos.

Buvisi Mushtariyni bag'riga bosib, **barmoqlarini** ko'ziga surtdi:

– To'g'ri aytasan, bolam, to'g'ri aytasan.

Matndan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chiring. Shu so'zlarda nechta unli va nechta undosh tovushlar bor?



19-mashq. She'ni o'qing.

Soat

Bugun ertalab tursam,
Soat to'xtab qolibdi.
Meni uyg'otaman deb,
O'zi uxlab qolibdi.

Betob bo'lib qoldimi
Yoki charchagan biroz?
Uni tuzata olar
Faqatgina soatsoz.

Fazilat Nosirova

She'rda talaffuzi va yozilishi farq qiluvchi so'zlarni topib yozing. *



Unli tovushlar va harflar



20-mashq. Diqqat bilan o'qing.

Daralarga ochib keng **quchoq**,
Quchog'ida **yayradim** uzoq.
Ko'kida oy-chashma yarqiroq,
O, **bunchalar** go'zal bu tog'lar!

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarda nechta tovush bor?
She'rdagi so'zlarga mos bitta tovush bilan
farqlanadigan boshqa so'zlarni toping.

Masalan: keng-yeng...



Qoidani yod oling.

Tartib bilan berilgan harflar
to'plami **alifbo** deyiladi.

Alifboda **26 ta harf** va **3 ta**
harflar birikmasi (sh, ch, ng) bor.





21-mashq. Uch guruhga bo'linib bajaring.

1

A harfidan boshlanib,
A harfi bilan tugaydigan
so'zlarni yozadilar.

Masalan:

Aziza, aka ...

2

K harfidan boshlanib,
K harfi bilan tugaydigan
so'zlarni yozadilar.

Masalan:

kiyik, kerak ...

3

T harfidan boshlanib,
T harfi bilan tugaydigan
so'zlarni yozadilar.

Masalan:

Toshkent, tort ...



22-mashq. Savol va topshiriqlarni bajaring.

1. M, s, t, v, p, ch, q, a, x, k, r harflarini alifbodagi tartib raqami bo'yicha ketma-ketlikda yozing.
2. **Yetti o'lchab, bir kes** maqolidagi har bir so'zni jadval asosida tahlil qiling.

So'zlar	Harflar	Tovushlar	Unli harflar	Undosh harflar



O'ylab ko'ring va so'zlarni toping.

SO + **1** = ?

K + **3** = ?

5 + IK = ?

6 + N = ?

8 + OYOQ = ?



23-mashq. Topishmoqning javobini toping.

Bir o'lka bor,
U qayer, o'ylang.
Nomida bor
Bosh kiyim va rang.



Topishmoq javobidagi harflarni alifbo tartibi bo'yicha yozing.



24-mashq. Alifboni zanjir usulida ayting va undosh harflarni daftaringizga yozing.

Namuna:

Aytilishi: A, B, D, E, F, G...

Yozilishi: B, D, F, G,...



25-mashq. O'qing va savollarga javob bering.



Birinchi chorak tugadi. Alifbodagi harflar bir sahifaga yig'ilishdi. **A** harfi uni taniy boshlagan bolalar haqida gapirdi:

– O'quvchilar meni yaxshi bilishadi. Erkatlab "Alifboning boshi" deyishadi.

– Meni ham tanib olishgan. Men ishtirok etgan so'zlarni xatosiz yozadilar, – dedi **N** harfi.

O harfi bolalardan mamnun bo'lib:

– "Ona" so'zini yozayotganlarida uchalamiz qo'llarimizni mahkam ushlab olamiz-a? – dedi.

Birin-ketin barcha harflar maqtanib ketishdi. Sahifaning burchagida egizak harflar **X** va **H** xafa bo'lib turishardi:

– Qanday baxtlisiz! Sizlarni to'g'ri yozishadi. Bizlarni esa hali yaxshi tanishmaydi ham, – dedi yumshoqqina qilib **H**.

– "Xo'roz" so'zida men kelishim kerak. Lekin o'rnimga egizagimni yozib qo'yishadi, – deb qattiq ranjidi **X**.



28-mashq. Rasmga qarab, *sh*, *ch*, *ng* harf birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.



1. Undosh tovushlarni sanang.
2. Harf birikmalari deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday harf birikmalarini bilasiz?
4. **Sh** va **Ch** harf birikmalari bo'g'inga qanday ko'chiriladi?



**Qoidani yod oling.**

Bir tovushni ifodalovchi **sh, ch, ng** harf **birikmalari** 2 xil usulda bo'g'inga ko'chiriladi:

Oldingi satrda qoladi:
chuch-vara, teng-dosh.

Keyingi satrga birgalikda
ko'chiriladi: **ko'-ngil, de-ngiz.**

**29-mashq. Uch guruhga bo'linib bajaring.****1**

Sh harf birikmasi ishtirok etgan so'zlarga misollar keltiradilar.

2

Ch harf birikmasi ishtirok etgan so'zlarga misollar keltiradilar.

3

Ng harf birikmasi ishtirok etgan so'zlarga misollar keltiradilar.





30-mashq. Berilgan rasmlarni diqqat bilan o'rganing.



1. Buyumlar va jonzoqlar nomida **sh, ch, ng** harf birikmalari ishtirok etmagan so'zlarni aniqlang.
2. Buyumlar va jonzoqlar nomida **sh, ch, ng** harf birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, daftaringizga yozing.



31-mashq. Nuqtalar o'rniga *sh, ch, ng* harf birikmalaridan mosini qo'yib o'qing.

Mehmon kutib

Mehmon kutib si..ilcham

Kul..a yopdi berilib.

Qozonga guru.. soldi,

..oy damladi kerilib.

Keli.., oli.., yeb ko'ri..,

Deb likopcha tuzadi.

Loydan **patir**, to..dan non –

Dasturxonni bezadi.



Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.



32-mashq. Maqollarni davom ettiring.

① Ko'p gap –

② Yaxshi bilan yursang,

③ Vatanning tinch –

④ Achchiq savol berib,





33-mashq. Testlarni yeching.



1. Qaysi qatorda harf birikmalari bo'g'inga ajratish qoidasiga muvofiq ajratilgan?

- A) sha-ja-ra, olcha, tong
- B) shaja-ra, o-lcha, tong
- D) sha-ja-ra, ol-cha, tong
- E) sha-ja-ra, ol-cha, to-ng

2. Qaysi qatorda harf birikmalari bo'g'inga ajratish qoidasiga muvofiq ajratilmagan?

- A) ko'-ngil, si-ngil, cha-qa-loq
- B) ke-li-ngiz, de-ngiz, ta-nga
- D) teng-siz, teng-dosh, chi-roy-li
- E) chash-ma, den-giz, bu-vin-giz



34-mashq. *Sh, ch, ng* harf birikmalari qatnashgan so'zlar ishtirokida ikkitadan gap tuzing.

- | | | |
|--------------|--------------|--------------|
| • hasharchi | • kenglik | • ming |
| • qo'shiqchi | • tanga | • tomosha |
| • shudring | • keldingiz | • hashamatli |
| • dengiz | • gulchambar | • Toshkent |
| • Charos | • achchiq | • Chimkent |

Jarangli va jarangsiz undoshlar




Qoidani yod oling.

Undosh tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra **jarangli** va **jarangsiz** bo'ladi.



Jarangli undoshlar

b	d
g	v
z	g'
j	j
l	m
n	r
y	ng



Jarangsiz undoshlar

p
t
k
f
s
x
ch
sh
q
h



Talaffuzida ovoz va shovqin ishtirok etgan undoshlar **jarangli**, faqat shovqinning o'zidan iborat bo'lgan undoshlar **jarangsiz** undoshlar deyiladi.

**35-mashq. She'ni o'qing.****Maqtanchoqqa**

Sen o'zingni o'zing
Ko'kka ko'tarma ko'p.
To'g'ri, o'zing juda yaxshi
Bolasan, xo'b.
Lekin seni boshqa birov
Maqtar bo'lsin.
So'zlaringga keksa-yu yosh
Mahtal bo'lsin.
Hayotda bir o'zing emas,
Qaraysanmi?
Hamma sevib **maqtashlikka**
Yaraysanmi?



Tolib Yo'ldosh

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni 5 bosqichda tahlil qiling:

1. So'zdagi tovush va harflar;
2. Unli va undosh tovushlar;
3. Jarangli undoshlar;
4. Jarangsiz undoshlar;
5. Bo'g'inlar.



Qoidani yod oling.

Talaffuzda ayrim soʻzlarning oxirida kelgan jarangli undosh oʻrniga uning jarangsiz jufti eshitiladi: **kitob, ozod, avlod, yalpiz.**

Bunday soʻzlar oxirida qaysi harf yozilishini aniqlash uchun shu soʻzning oxiriga unli harf qoʻshib aytiladi: **kitob – kitobi, yalpiz – yalpizi.**



36-mashq. She'rni o'qing.

Rost soʻz boʻlar, koʻpincha, achchiq,
Yolgʻon soʻzning tuzogʻidan chiq.
Haq soʻz uchun mayli-da, tiz choʻk,
Hushyor boʻlgʻin tilga, bolajon.
Koʻz ilgʻamas gʻovlar bor qancha,
Tubsiz oʻpqon, zovlar bor qancha.
Tish qayragan yovlar bor qancha,
Hushyor boʻlgʻin yoʻlda, bolajon.

Xurram Rahimov

Sheʼrdan faqat jarangli tovush bilan boshlanadigan soʻzlarni koʻchirib yozing.

Masalan: rost, boʻlar, ...





37-mashq. Quyidagi namunaga qarab, topshiriqni bajaring.

Namuna: *non* → *un* → *bug'doy*.

- | | | |
|---------|-----------|------------|
| • uy | • ko'ylak | • guldasta |
| • stol | • kitob | • tuvak |
| • atlas | • qalam | • ko'prik |



38-mashq. So'zlarning oxiriga kerakli undoshlarni qo'yib o'qing.

- | | | |
|-----------|-------------|------------|
| • umi... | • daroma... | • muro... |
| • odo... | • makta... | • yo... |
| • javo... | • saba... | • ozo... |
| • ay... | • bunyo... | • maktu... |

Har bir so'zdan so'ng uning unli qo'shilgan shaklini yozing.

Namuna: *umid-umidi*





39-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chiring. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni aniqlang.

O'zbek **xalq** og'zaki ijodida **rostgo'ylik** yuksak insoniy fazilat sifatida ulug'lanadi, yolg'onchilik esa **qattiq** qoralanadi. Rostgo'ylik, ya'ni to'g'ri so'zlash kishini murod-maqsadiga yetkazadi. Insonda **mardlik**, **haqgo'ylik** kabi xislatlarning shakllanishiga yordam beradi. Atrofdagilarda unga nisbatan **ishonch**, hurmat va sadoqatni paydo qilishda muhim rol o'ynaydi.

Rostgo'ylik haqida qanday maqollarni bilasiz?



40-mashq. She'rni o'qing. *Sh, ch, ng* harf birikmali so'zlar ishtirokida ikkitadan gaplar tuzing.

Vatan

Dil porasi, ko'z qorasi sen o'zingdirsan,
Mening ko'nglim sen aslida, sen ko'zimdirsan.
Tomirimda tomir yoygan ilk so'zimdirsan,
Ilk og'rig'im, ilk yomg'irim, naysonim, Vatan.

Sirojiddin Sayyid

She'rdagi jarangli undoshlar bilan boshlanadigan so'zlarni birinchi ustunga, jarangsiz undoshlar bilan boshlanadigan so'zlarni ikkinchi ustunga ajratib yozing.

Talaffuzda tushib qoladigan va yonma-yon kelgan undoshlar



41-mashq. O'qing. She'rdagi ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi undoshlarni tahlil qiling.

Ona shahrim – azim **Toshkent**,
Go'zallikda tengsiz **poytaxt**.
Kelajagi buyuk shahar,
Quchog'ida yuz ochar **baxt**.
Ko'chalari ravon, nurli, .
Binolari ko'rkam, **baland**.
Bo'lsam deymen bir koriga
Yaraydigan komil **farzand**.



Abdurahmon Akbar



Qoidani yod oling.

Ayrim so'zlar oxirida kelgan **d** va **t** undoshlari talaffuz qilinmaydi, ammo yoziladi: **baland, rost, go'sht...**

Ba'zi so'zlarda ikkita bir xil undosh yonma-yon keladi: **hatto, tilla, issiq...**

Bo'g'in ko'chirishda so'zlardagi yonma-yon kelgan bir xil undoshning biri oldingi qatorda qoldirilib, ikkinchisi pastki qatorga o'tkaziladi: **kat-ta, var-rak, ma-hal-la...**





42-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, so'zlar qatorini to'ldiring.

NARD

XU.S...

HEIN

M..R.BO.

YO'ST

RO..G..

CHAQOQN

MA.T...O.

TXYT

PO..A..

YAYO

SA...R.



43-mashq. Misollarni og'zaki hisoblang.
Javoblarni daftaringizga harflar bilan yozing.

- $7+2=?$
- $9+8=?$
- $17+2=?$
- $30+9=?$
- $58-8=?$
- $20-12=?$



44-mashq. Savol va topshiriqlarni bajaring.

1. So'z oxiridagi qaysi undosh tovushlar talaffuzda tushib qoladi?
2. Ikkita bir xil undosh harflar yonma-yon kelgan so'zlarga misollar keltiring.
3. So'zlarda ikkita unli harflar ham yonma-yon qo'llanilishi mumkinmi? Misollar keltiring.

**45-mashq. Testlarni yeching.**

1. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar qatorini belgilang.
 A) katta, hissa, kakku
 B) baland, past, uzoq
 D) harakat, payt, qush
 E) olma, bog', yomg'ir
2. "Tanaffus" so'zida qaysi undosh tovush. yonma-yon kelgan?
 A) f B) n D) s E) a
3. Faqat yonma-yon kelgan unlilar berilgan qatorni toping.
 A) oqshom, tong, sovuq
 B) ammo, sakkiz, qattiq
 D) taajjub, manfaat, taassurot
 E) manfaat, issiq, munavvar

**46-mashq. Ertakni o'qing va mazmunini qisqacha so'zlab bering.****Qovoqvoy nega xafa?**

Qovoqvoy kichkina bo'lgani uchun kuzda kunlar qisqarib, tunlar uzayishi haqida bilmas ekan. Uyg'onib qarasa, hali hech kim uyqudan turmabdi. Hatto quyosh chiqmaganini ko'rib: "Erinchoq oftob-a, yalqovligini qarang", debdi o'ziga o'zi va o'ynagani do'stlari yoniga

shoshilibdi. Bu paytda karam, lavlagi, turp va sholg'om qavat-qavat ko'rpasiga o'ranib uxlashar edi. Qovoqvoy do'stlarining dangasaligidan ranjibdi. Zerikkanidan daraxtlar bilan suhbatlashgisi kelibdi. Buni qarangki, daraxtlar ham sarg'aygan yaproqlarini to'kaverib toliqqan edi. Qovoqvoy mudrab turgan daraxtlar oldiga kelib, ularni savolga tutibdi. Ular jajji Qovoqvoyga kuz va qish fasllari haqida so'zlab berishibdi. Daraxtlarning qishki uyquga ketishini eshitgan Qovoqvoy ko'zyosh to'kibdi.

Oradan kunlar o'tib, poliz egalari Qovoqvoyni uylariga olib ketishibdi...

Yo'q-yo'q, siz uni ham qishki uyquga ketadi, deb o'ylamang. Keyingi yil polizda Qovoqvoyning urug'laridan yana yangi qovoqlar unib chiqadi.

Dilnoza Hayitova

**Ertakdan undoshlar yonma-yon
kelgan so'zlarni toping.**





47-mashq. “Xatoni top” mashqi. Xato yozilgan soʻzlarni toʻgʻrilab koʻchiring. Soʻzlarning aytilishi va yozilishini yodda saqlang.

Ey farzan! Har qadaminni oʻylab bos. Muloxaza bilan ish qil. Doyimo kamtar boʻl, xalqqa xizmat qil. Kamtarga komol, manmanga zavol, degan maqolni aslo unitma. Bu seni shioring boʻlsin.



Berilgan rasmlardan foydalanib, savollarga javob bering.

1. Oʻzbekistonning poytaxti qayer?
2. Biror oʻsimlikni boshqa oʻsimlik tanasiga ulab oʻtkazish usuli.
3. Ota-onaning oʻgʻli yoki qizi yana qanday ataladi?
4. Chorvadan olinadigan oziq-ovqat mahsuloti.
5. Insonning sirdoshi, uning eng yaqin kishilaridan biri.
6. Boʻy choʻzib, shoxlar chiqarib oʻsadigan oʻsimlik.
7. Amir Temur hukmronligi davridagi poytaxt shahar nomi.
8. Bolalarning sevimli shirinligi nomi.

⑤ D...

① T...

⑧ X...



③ F...

⑦ S...

④ G...



② P...

⑥ D...



48-mashq. Savollarga javob yozing va topshiriqlarni bajaring.

1. Siz doim rost gapirasizmi?
2. *Xursand*, *rost* so'zlarining aytilishi va yozilishida qanday farq bor?
3. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar ishtirok etgan ismlarni topib, ko'chiring:
Muqaddas, Mahliyo, Abdulla, Botir, Muhayyo, Qimmatxon, Akbar, Izzat, Jabbor, Sayyora, Alisher, Farrux, Sabohat, Muattar, Nuriddin.
Shu ismlar ishtirokida to'rtta gap tuzing.



Gap va uning turlari



49-mashq. Matnni o'qing. Matnda nechta gap borligini sanang.

Gulrux telefonda dugonasi bilan so'rashgach, uy vazifasini qilmaganini aytib, sekingina go'shakni qo'ydi. Bu suhbatni eshitgan Salomat xola qiziga ajablanib qaradi va dedi:

– Bu nima deganing, qizim? Qanaqasiga darsingni qilmaysan? Axir menga darslarimni qilib bo'ldim, deding-ku.

– Darsimni qilmagandim. Ertaga Nafisa dugonamdan ko'chirib olaman, – dedi yerga qarab Gulrux.

– Nega endi undan ko'chirib olasan? Ko'chirishga o'rganib qolsang, qanday qilib oliy o'quv yurtiga o'qishga kirasan? – deb kuyindi onasi. Gulrux yig'lab yubordi.

– Oyijon, men ham qiynalib ketdim. Oxirgi mavzuni tushunolmay qolgandim.

– Tushunmagan bo'lsang, nega darsdan keyin qolib o'qituvchingdan so'ramaysan?

– Oyijon, o'qituvchimiz juda qattiqqo'l. Agar darsni tushunmaganligimni bilib qolsa, menga bo'lgan ishonchi so'nadi, deb qo'rqaman.

Ertasi kuni Salomat xola maktabga borib, dars tugashini kutib turdi. Nihoyat, qizining ustози Hidoyat Hafizovna bilan uchrashib, bo'lgan voqeani aytib berdi.

Shunda Hidoyat opa Gulruxni yoniga chaqirdi.

– Sen mening eng ishongan o‘quvchilarimdan birisan. Hech qachon qo‘qilishingni xohlamayman. Agar mavzuni tushunmayotgan bo‘lsang, darsdan keyin xohlagan paytingda kelib so‘rashing mumkin. O‘quvchilarim uchun doim vaqt topaman. Shuni bilib qo‘y, qo‘rqoqlik odamni kuchsiz qilib qo‘yadi, – dedi.

Gulrux biroz taskin topdi. Qulog‘i ostida ustozining gaplari ancha vaqtgacha jaranglab turdi.

Husnobod Shomirzayeva
“O‘qituvchim – sirdoshim” hikoyasidan



**Topshiriqni bajaring.**

- Matnda nechta gapga nuqta, nechta gapga so'roq belgisi va nechta gapga undov belgisi qo'yilganligini sanang.
- Matndan nuqta, so'roq va undov belgisi qo'yilgan gaplarni topib, bittadan misol yozing.
- Sizningcha, Gulrux qanday qiz? Uning qanday qiz ekanini o'z fikringiz orqali bitta gap bilan ta'riflang.
- Muallif nima uchun hikoyani "O'qituvchim – sirdoshim" deb nomlagan? O'ylab ko'ring, hikoyani yana qanday nomlash mumkin? Fikringizni izohlang.

**Qoidani yod oling.**

Gap tugallangan fikrni bildiradi. Yozuvda har bir gapning birinchi so'zi **bosh harf** bilan boshlanadi.

Gap oxiriga nuqta (**.**), so'roq belgisi (**?**), undov belgisi (**!**) qo'yiladi.

Nuqta, so'roq va undov belgisi **tinish belgilari** deb ataladi.





50-mashq. Maktabingizdagi dildan suhbatlasha oladigan ustozingiz haqida matn yozing. Tuzgan matningizda *darak*, *so'roq* va *buyruq* gaplardan foydalaning.



51-mashq. Savollarga yozma javob bering.

1. Siz Gulruxning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz? Fikringizni uch yoki to'rtta gap bilan ifodalang.
2. "O'qituvchim – sirdoshim" mavzusida bir-biriga mazmunan bog'liq uchta gap tuzing. Ulardan biri nuqta, biri so'roq belgisi, biri undov belgisi bilan tugasin.



52-mashq. Savol va topshiriqlarni bajaring.


1. Gap nima? U nimalardan tuziladi?
2. Gaplar kichik harf bilan boshlanishi mumkinmi?
3. Gapning qanday turlarini bilasiz?
4. Gap matn hosil qila oladimi?



Darak gap



53-mashq. Matnni o'qing. Savollarga javob bering.



Siz miyaning ikkita yarim sharga bo'linishini bilsangiz kerak. Ularning har biri mustaqil ekanini-chi?

Ma'lumki, miya chap va o'ng yarim sharlardan tashkil topgan. Yana shu narsa ham ayonki, agar chap yarim shar shikastlansa, tananing o'ng tarafi, o'ng yarim shar shikastlansa, tananing chap qismi falaj holatiga tushadi. Boshqacha qilib aytganda, miyaning har bir yarim shari tanada o'ziga qarama-qarshi bo'lgan tomonni boshqaradi. Miyaning chap yarim shari aqliy faoliyatning quyidagi turlarini boshqarar ekan:

- hisob-kitob;
- tillarni o'zlashtirish;
- mantiqiy bilim;
- tahlil;
- xat-hujjatlar;
- shularga o'xshash boshqa faoliyat turlari.

Miyaning o'ng yarim shari esa faoliyatning quyidagi turlarini boshqaradi:

- tasavvur qilish;
- ranglarni farqlay olish;
- musiqa;
- orzu qilish;
- ritmni his etish;
- faoliyatning shunga o'xshash boshqa turlari.



1. Matnda nechta darak gap borligini aniqlang.
2. Siz matnga qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz?
3. Matndan nimalarni bilib oldingiz?
4. O'ng va chap miya sharlarining farqi nimada ekan? Fikringizni 2-3 ta xabar ma'nosini bildiruvchi gaplar orqali bayon qiling.



Qoidani yod oling.

Biror narsa-voqea haqida xabarni bildirgan gap **darak gap** deyiladi. Darak gap oxirida ovoz pasayadi. Darak gapning oxiriga **nuqta** qo'yiladi.





54-mashq. Matnni o'qing. Har bir gap oxiriga mos tinish belgisini qo'yib, gapiarni ko'chiring.

Bir kuni Alijon qo'y boqib yurgan edi qirga chiqsa, qarg'alar yong'oq yeyishayotgan ekan Alijon ularga kesak otdi qarg'alar og'zidagi yong'oqlarni tashlab qochishdi birozdan so'ng qarg'alar yana yong'oq yeyishni boshladi Alijon yana kesak otdi qarg'alarning jahli chiqib, unga hujum qilishdi Alijon boshqa bunday qilmaydigan bo'ldi



Matnda nechta gap borligini aniqlang. Matnga mos sarlavha toping.



55-mashq. Vazifani ikki guruhga bo'linib bajaring.

1

Yumshoq, oq rangli narsalar nomi ishtirok etgan 5 ta gap tuzing.

2

Qattiq, qora rangli narsalar nomi ishtirok etgan 5 ta gap tuzing.



56-mashq. Quyida berilgan soʻzlarni toʻgʻri ketma-ketlikda yozib, gaplar hosil qiling.

1. Ona, Vatanga, sadoqatli, boʻl, hamisha.
2. Har qanday, birlikda, kuch, va, hamjihat boʻlishda.
3. Adolat, mezon, bil, ekanini, taraqqiyot.



57-mashq. Oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning maʼnosini topib, daftaringizga koʻchiring.

Kuzdan qoʻrqadigan fillar

Agar bilsangiz, fillar kuz kelishidan choʻchishar ekan. Ularning **qoʻrquvi xazonrezgida** yanada ortar, sababi bu **mavsumda** xazon orasidagi sichqonlar ularning **xartumiga** kirib ketishi mumkin ekan.

Fil **quruqlikda** yashaydigan eng **ulkan**, **ogʻir** jonivor. Oyoqlari **baquvvat**, **yelpigʻichni** eslatuvchi quloqlari **naq yelkandek**. Ahillikda fillarga yetadigani yoʻq. Agar



birortasi chuqurlikka tushib ketsa bormi, uzun va baquvvat xartumli **toʻdadoshlari** tezda yordamga keladi. **Joni** ogʻrisa, koʻz yosh toʻkadi.

Ajabo, qoplon-u sirtlonni, hatto sherni ham **pisand** qilmaydigan fil sichqondan qoʻrqsa-ya...

Atrofimizdagi olam shunday **moʻjizalarga** boy.

Buyruq gap



58-mashq. Rasm asosida hikoya tuzing, hikoyangizga sarlavha toping.



Hikoyangizda *darak gap* va *buyurish, maslahat, iltimos* mazmunidagi gaplardan foydalaning.



59-mashq. Matnni o'qing va qanday gap turlari borligini aniqlang.

Pishloq sigir, echki, qo'y yoki ot sutlarini achitib tayyorlanadigan mahsulotdir.

Pishloq – sutni ivitib, unga ishlov berish yo'li bilan tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsuloti.

Pishloq parhez bop va shifobaxsh xususiyatga ega bo'lib, yengil va deyarli to'liq hazm bo'ladi. Uning 800 ga yaqin turlari bo'lib, ularning kimyoviy tarkibi, mazasi har xil. Pishloq sutning qaysi hayvondan olingani, qancha saqlangani, yog'lilik miqdori bilan farqlanadi. Rangi sarg'ish-yashildan qizilgacha bo'lishi mumkin. Ba'zi pishloqlarda g'ovaklar hosil bo'ladi.



Pishloq o'z tarkibida yog', oqsil, kalsiy hamda fosfor minerallarini uzoq vaqt saqlay olgani tufayli odamlar sog'lig'i uchun foydali hisoblanadi.

Bolalar, siz ham ko'proq pishloq iste'mol qiling. Uni uvol qilmang.

Matnda nechta gap bor?

Matnda nechta gapga nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi qo'yilganini aniqlang. Matndagi buyruq gaplarni ko'chiring.

**Qoidani yod oling.**

Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar **buyruq gap** deyiladi.

Buyruq gapning oxiriga **nuqta** qo'yiladi.

Masalan: Bolalar, yo'l harakati qoidalariga har doim amal qiling.

**60-mashq. 59-mashqdagi matnga qarang.**

- Matndagi 2 ta darak gapni buyruq gapga aylantirib yozing.
- Matndan pishloq ta'riflangan, uning foydali tomonlari bildirilgan gaplarni topib yozing.

**61-mashq. Savol va topshiriqlarni bajaring.**

1. Gap oxiriga so'roq yoki undov belgisi qo'yilgan bo'lsa, bu darak gap bo'la oladimi?
2. Buyruq gap deb nimaga aytiladi?
3. Buyruq gap oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?
4. Buyruq gaplar darak gaplardan qanday farqlanadi?



62-mashq. Quyidagi savollarga tezkor javob bering va o'z bilimingizni sinab ko'ring.

- ① Gapning maqsadga ko'ra turlarini ayting.
- ② Darak gap deb nimaga aytiladi?
- ③ Buyurish, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar qanday gaplar deyiladi?
- ④ Nuqta, so'roq va undov belgilari qanday ataladi?
- ⑤ Buyruq gapga misollar keltiring.
- ⑥ Maqolni davom ettiring: *Bir bolaga ...*



63-mashq. Quyidagi gapni darak, so'roq va undov gaplarga aylantirib ko'ring.

Ertadan boshlab darsdan keyin shug'ullanamiz



64-mashq. Maqollar toping. Ushbu maqollar asosida buyruq gapga 3 ta misol yozing.

So'roq gap



65-mashq. Rasm asosida 3 ta savol tuzing.



Tuzgan savollaringiz oxiriga qanday tinish belgisini qo'yish kerak?

Tuzgan savollaringizga o'zingiz javob bering.



Qoidani yod oling.

So'rash mazmunini bildirgan gaplar **so'roq gaplar** deyiladi. So'roq gaplarning oxiriga **so'roq belgisi** qo'yiladi.



66-mashq. Matnni o'qing. Gaplarning mazmuniga e'tibor bering va gap turlarini aniqlang.

Vaqt – bebaho ne'mat

Insoniyat vaqt bebaho boylik ekanini qadimdan e'tirof etib, uni juda qadrlagan. U shunchalik tez o'tib ketadiki, hatto payqamay ham qolasan kishi. E'tiborlisi, kimdir uni samarali, foydali o'tkazib, oilasiga, do'st-birodarlariga naf keltirsa, yana kimdir uni behuda sarflaydi.

Vaqtni inson foydasiga qanday xizmat qildirish mumkin?

Vaqtni inson manfaatiga xizmat qildirishning yo'li – doimo ezgu maqsadlar bilan yashash, ilm va kasb-hunar o'rganish, el-yurtga halol xizmat qilish.

So'roq gapni ko'chiring. So'roq ifodasini berayotgan so'zni toping.


So'roq gapni darak gapga aylantiring.



67-mashq. Maqollarni davom ettiring.



68-mashq. Beriigan so'zlar ishtirokida darak, so'roq va buyruq gaplar yozing.



Namuna: Men qiziqarli ertak **o'qidim**.
Sen kitobingni **o'qidingmi**?
Kitobingni **o'qi**!



69-mashq. Berilgan gaplarni darak va buyruq gaplarga ajrating.

- ① Men idishlarni yuvdim.
- ② Anvar chiroyli yozdi.
- ③ Yo'l harakati qoidalariga rioya qiling.
- ④ Chiroyli yozishni mashq qildik.
- ⑤ Tanaffusda hovlida o'ynang.
- ⑥ Qodir qiyin masalani yecha oldi.

Berilgan gaplarni so'roq gaplarga aylantirib yozing.



70-mashq. Qavs ichida berilgan so'zlardan mosini tanlab, gaplarni so'roq gapga aylantiring.

1. Tal'at rubob... (chaladi, chaladimi, chalgini)?
2. Bilim baxt ... (keltiradimi, keltiradi, keltirsin)?
3. Oltin olma, duo ol. Duo oltin (emasmi, emas, emasdir)?
4. Aziza gullarga suv ... (quydi, quysin, quydimi)?
5. Uyga ... (qaytaylik, qaytamiz, qaytamizmi)?
6. Buvingga ko'zoynakni olib borib ... (bergin, berdingmi, berdi)?



71-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, maqollarni to'ldiring. Ma'nosini izohlang.

- ... hurmatda bo'l, ... izzatda bo'l.
- Oz ... ham soz so'zla.
- Shirin ... bilan toshni ham eritsa bo'ladi.
- To'g'ri so'z ... yorar, egri so'z – boshni.
- Sabr-toqatli ... , omading yurishadi.
- Ota-onangga ... bo'l, ularni ... qil.
- Do'st-birodar orttir. Kuch-qudrating



72-mashq. Matnni o'qing. Tinish belgilarini qo'yib, matnni ko'chiring.

Meva sharbati

Inson sog'lig'i uchun meva sharbati ichib turish nihoyatda foydali ekanini bilasizmi o'lkamizda turli shifobaxsh mevalar ko'p ularni yeyish juda foydali lekin ularning sharbatini ichish kishini yanada sog'lom qiladi uy sharoitida sharbat tayyorlash oson bu haqida yozilgan maxsus kitoblar bor ulardan foydalanib, sharbat tayyorlashni o'rganing sog'lig'ingizni asrang



So'roq gaplarni mustahkamlash



73-mashq. Rasmlarni diqqat bilan o'rganing. Savollarga javob bering.



1. Kun tartibi deganda nimani tushunasiz? Sizning kun tartibingiz qanday?
2. Kun tartibi kishi salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Tishlarimiz uchun nima foydali va nima zararli deb hisoblaysiz?

4. To'g'ri ovqatlanish deganda nimani tushunasiz?
5. Sport bilan shug'ullanishning inson uchun qanday foydali jihatlarini bilasiz?



74-mashq. Quyidagi so'zlardan foydalanib, so'roq gaplar tuzing.





75-mashq. She'rdan qanday gap turlari bor?
Ularni so'roq gaplarga aylantiring.

Kattalarga salom ber,
Ko'ksing uzra qo'yib qo'l.
Og'zing ochib anqayma,
Danakdayin pishiq bo'l.



Tolib Yo'ldosh



76-mashq. O'qing. Matnni davom ettiring.

Tonggi badantarbiya mushaklarning uyqudan uyg'onishi uchun juda zarur ekanini bilasizmi? Tongda jismoniy mashqlar uchun 10 daqiqa vaqt ajrating. Shuning o'zi ham kun davomida o'zingizni tetik his qilishingizga yordam beradi.



Matnda so'roq gaplar ishtirok etsin.



77-mashq. She'r mazmuniga e'tibor bering.
So'roq gaplarni toping.

Erinchoq

Bekmurodga onasi
Ko'p aytdi: "Yuzingni yuv!"
"E, baribir ertaga
Kir bo'ladi", – dedi u.

"Hech bo'lmasa kiyiming
Kiyib olgin egningga".
"Kiysam, so'ng qayta yechib
Yuramanmi indinga?"

Bir payt qorni ochqadi,
Sekin dedi: "Oyijon,
Bersangiz sariyog' surtib
Sedanali kulcha non".

Onasi javob berar:
"Non yeb nima qilasan?
Kechga borib baribir
Yana ochqab qolasan".

Z. Soranboyeva

Erinchoqlik va dangasalik haqida qanday maqollarni bilasiz?



78-mashq. O'qing. Berilgan gaplardan to'rttasini tanlang. Ularning turini namunada berilganidek yozing.

O'qish uchun kitobni qanday qilib to'g'ri tanlash mumkin? Insoniyat tarixi davomida ko'plab kitoblar yozilgan. Odamzod butun hayoti davomida o'qib tugata olmaydigan darajada ko'p kitob mavjud. Siz nimani o'qish kerakligi va nimani o'qimaslikni qanday ajratasiz? Avval qaysi kitobni o'qish kerakligini-chi? Kitoblarning ro'yxatini tuzing. Diqqat bilan o'zingizga mos kitoblarni tanlang. Oxir-oqibat, Genri Toro aytganidek: "Avval yaxshi kitoblarni o'qing, aks holda ularni umuman o'qiy olmaysiz". Kitobni oxirigacha o'qing.

Gaplar

O'qish uchun kitobni qanday qilib to'g'ri tanlash mumkin?

Gap turi

So'roq gap



79-mashq. So'roq belgisini joyiga qo'yib, gaplarni ko'chiring. Savollarga javob yozing.

Makkajo'xori donidan nima tayyorlanadi Uning nimasidan arzon va shirin pechenyelar tayyorlanadi Makkajo'xorining bargi va so'tasidan nima qilinadi Qanday boqilgan mollar yaxshi semiradi

His-hayajon gaplar



80-mashq. Rasmlarga qarang. Ular asosida darak, so'roq, buyruq va his-hayajon gaplarga misollar keltiring.



**Qoidani yod oling.**

Kuchli his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gaplar **his-hayajon gap** deyiladi.

His-hayajon gapning oxiriga **undov belgisi** qo'yiladi.



81-mashq. O'qing. Nima uchun gap oxiriga undov belgisi qo'yilganini izohlang.

Odam degani saxovatli bo'lishi
kerak, bolam!

His-hayajon gaplarga yana misollar keltiring.



82-mashq. Rasmlarga qarang. Asalari boqadiganlar nimadan daromad olishi mumkin?





83-mashq. Matnni o'qing. Matnda qanday gaplar berilganini aniqlang.

Bahorda daraxtlar qiyg'os gullaydi.
Gulkosalar ichiga boshini suqib turgan
asalarini ko'rganmisiz? Asalari gul shirasi
bilan oziqlanib, undan asal tayyorlaydi.

Oh, asal juda mazali! Yana uning ko'p
dardlarga davoligini aytmysizmi?!



Matndagi his-hayajon gaplarni topib, ko'chiring.



84-mashq. Topshiriqlarni bajaring.


- His-hayajon gaplarga misollar keltiring.
- Ari va asal rasmlarini chizing. Ularning foydali va zararli jihatlari haqida o'z fikringizni yozing.

His-hayajon gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi



85-mashq. Gaplarni o'qing. Gap oxiriga qo'yilgan tinish belgilarini izohlang.

Keyin Sharlotta ularga shunday dedi:
"Buni men qilaman! Men boraman!"
"Bu Sharlotta! – deb o'yladi dehqon.
– U yolg'iz kelgani aniq. Qandaydir
ko'ngilsiz hodisa ro'y bergan!"





86-mashq. Matnni o'qing. Gap oxiriga qo'yilgan tinish belgilariga e'tibor bering.

Tasavvur qiling, daraxtdan yoki narvonning tepasidan yiqilib tushsak, albatta, biror joyimiz lat yeydi. Ammo mushukni tomdan yoki baland daraxt tepasidan otib yuborilsa ham, sakrab yerga tushadi-yu, yana hech nima bo'lmaganday yurib ketaveradi. Nega bunday bo'lishi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?



Mushuk oyog'i bilan tushadi-da, dersiz. To'g'ri, lekin nega aynan shunday tushadi?!

Baroqvoy lat yemasligiga sabab "Parashyut effekti" degan uslubdan foydalanishida ekan. Bu qanday effekt, deysizmi?! Mushuk yiqilayotganda uning oyoqlari uzayib, tanasining sathi kengayar ekan. Natijada, tushishi sekinlashadi va Baroqvoy yerga yengilgina "qo'nadi". Ha, aytmoqchi, mushuk yerga tushish chog'ida oyoqlarining egiluvchanligidan ham oqilona foydalanar ekan.

Mushukning bu jihatiga siz ham e'tibor berganmisiz? Matndagi his-hayajon bilan aytilgan gaplarni toping.

Gap oxirida so'roq va undov belgilari birga kelgan gaplarni topib, tinish belgilarini izohlang.



87-mashq. Guruh bo'lib ishlang. Gap oxiriga qo'yilgan tinish belgilariga e'tibor bering.

1

Darak gaplarga misollar yozing.

2

So'roq gaplarga misollar yozing.

3

Buyruq va his-hayajon gaplarga misollar yozing.



88-mashq. O'qing. Nima uchun oxirgi gapda undov belgisi qo'yilganini tushuntiring.

– Nodira, darsdan keyin kutubxonada shug'ullanamizmi?

– Albatta, zo'r bo'lardi.

– Qanday kitoblar o'qiymiz?

– Tarixiy kitoblarni o'qiylik.

– Bo'пти, kelishdik.

– Darsliklaringni o'zing bilan olasanmi?

– Bajonidil, albatta, olaman!





89-mashq. Gaplar oxiriga tinish belgilarini to'g'ri qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Kitobxonlarga sovg'a

Bolajonlar, tasavvur qiling-a, kompyuter sichqonchasi birdan jonlanib qolsa bunaqasi bo'lmaydi, deysizmi ishonavering o'sha sichqonchalarning sarguzashtlari bilan qiziqyapsizmi unda Muazzam Ibrohimovaning "Sumalakxo'r samolyot" to'plamidan o'rin olgan ertaklarni o'qib chiqishingizga to'g'ri keladi



Gap bo'laklari



90-mashq. Gapni o'qing. Gapdagi qaysi so'zlar asosiy vazifani bajaryapti?

Mana, bir necha kundan beri Karim polvon jilvalarga boy jiyron qashqasini mehr bilan yuvib-tarab, parvarishlaydi.



91-mashq. Matnni o'qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

Dadam menga juda ko'p hikoyalar aytib beradi. Men ular orqali buyuk bobolarimiz haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lyapman. Aynan shu hikoyalar sabab tarixga qiziqib qoldim. Ustozimning aytishicha, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi bobolarimizni butun jahon tanir ekan.

Men kelajakda ular haqida yanada ko'proq ma'lumotlarni, ular qoldirgan bebaho asarlarni puxta o'rganib, tarixchi olim bo'lmoqchiman.

Har bir gapdagi bosh bo'laklarni toping.

Qoidani yod oling.

Gapda so'zlar ma'nosiga ko'ra, ma'lum bir vazifani bajaradi. Mustaqil ma'noga ega so'z **gapning bo'lagi** deyiladi.

Diyora uni o'zining kutubxonasiga olib kirdi gapida fikrni o'ziga qaratayotgan bo'lak **Diyora** bo'lsa, u haqida fikr bildiruvchi bo'lak **olib kirdi** so'z birikmasidir.

Gapdagi boshqa so'zlar gapning asosiy mazmunini to'ldirish uchun xizmat qiladi: **uni o'zining kutubxonasiga**.





92-mashq. Diqqat bilan o'qing va ko'chiring.

Quyosh chor atrofga yoyildi. Xadicha onasi bilan buvisini ko'rishga boradigan bo'ldi.

Qizaloq ichkariga kirmay, betartib bo'lib yotgan oyoq kiyimlarni tartib bilan taxladi. Ichkaridan chiqib kelayotgan buvisi nevarasining ishini ko'rib, miyig'ida kuldi. "Olmaning tagiga olma tushadi-da", – dedi.



Gap bo'laklarini tahlil qiling. Qaysi gap bo'laklari gapning asosini tashkil etgan?

Namuna: Quyosh chor atrofga yoyildi.
 Quyosh yoyildi – gapning bosh bo'lagi;
 Chor atrofga – asosiy mazmunningi to'ldirgan bo'lak.

93-mashq. Rasmi hikoyani o'qing.

Shamol va bulut

Kuz kunlarining birida   lar bilan o'ynashni xohlabdi.   yonidan qattiq esib o'tgan ekan,  ning  lari to'kilib ketibdi. O'ynoqi  ning ko'zi ochiq  ga tushibdi. U bilan ham o'ynamoqchi bo'libdi. Atrof chang-to'zon bo'libdi. Shunda  : – Hammaga ozor beraman, birorta do'stim yo'q, – deb o'ksibdi. Shu payt uning yoniga quvnoq  kelibdi.

– Xafa bo'lma, do'stim, senga o'zim yordam beraman, – deb  uni ovutibdi. Shundan so'ng  yomg'irni chaqiribdi.  va  yomg'ir tomchilari bilan mazza qilib o'ynashibdi. Tevarak-atrof toza havo bilan to'yinibdi.

Har bir gapning bosh bo'laklarini toping.

**94-mashq. She'ni o'qing.**

Novdalarga o'ralib,
Sovuq shamol bo'zladi.
Qorlar yog'di bo'ralab,
Soyning suvi muzladi.

R.Qudasheva

She'ni ko'chiring. Gaplarning bosh bo'laklari va asosiy mazmunni to'ldirgan bo'laklarni alohida ajrating.

**95-mashq. She'ni o'qing. Gaplarning bosh bo'laklarini toping.**

Men ham bo'lganda katta,
Bilim olib maktabda,
Mehrim berib, albatta,
Kitobga qo'l tutaman.
Kitob – mening hamrohim,
Eng yaqinim, sirdoshim.
Yo'limdagi quyoshim,
Kitobga qo'l tutaman.

“Kitobga qo'l tutaman” misrasini qanday tushundingiz?

Gapning bosh bo'laklari



96-mashq. Gapiarni o'qing. Gapdagi qaysi so'zlar asosiy vazifani bajaryapti?

1

Bobom Asaka shahrida poyabzal ustasi bo'lgan.

2

Men hech qachon ishimdan charchamayman.

3

U o'z tajribasi va malakasi bilan o'rtoqlashdi.



**Qoidani yod oling.**

Gapning asosiy mazmunini tashkil etgan gap bo'laklari **bosh bo'laklar**dir. Asosiy mazmunni to'ldirish uchun xizmat qiladigan bo'laklar **ikkinchi darajali bo'laklar**dir.

Masalan: *Bilimli bola charchashni bilmaydi.*

Bola, bilmaydi – bosh bo'laklar;
bilimli, charchashni – ikkinchi darajali bo'laklar.

**97-mashq. Maqollarni o'qing.**

- 1 Shirin so'zga quloq charchamas.
- 2 Dangasaga ostona ham tepa bo'lib ko'rinar.

Berilgan maqollarning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini ajratib, alohida yozing.

**98-mashq. Berilgan gaplarni diqqat bilan o'qing.**

Yillar o'tib, o'sha juldurvoqi kiyimli bola yaxshi o'qidi. O'z taqdirini o'zi hal qildi. U mashhur rassom bo'lib yetishdi. Mamlakatdagi eng boy odamlardan biriga aylandi. O'ziga munosib bir qasr qurdirdi. Qasr hamda uning ichidagi xazinani ko'rishni hamma istardi.



Hans Kristian Andersen

1. Qaysi so'zlar gapning asosiy mazmunini bildiriyapti?
2. Qaysi so'zlar gapning asosiy mazmunini to'ldirishga xizmat qilyapti?
3. Har bir gapdagi so'zlarni namunadagidek tahlil qilib, o'rganib chiqing va daftaringizga yozing.

Namuna: *bola, o'qidi* – gapning asosi;

yillar o'tib o'sha juldurvoqi kiyimli (bola),
yaxshi (o'qidi) – asosiy mazmunni to'ldirgan
so'zlar.



99-mashq. O'qing va gap bo'laklarini ajrating.



Men kitob o'qishni
yaxshi ko'raman.

Teran fikr insonni
ezgu amallarga
boshlaydi.

Har qanday xayol
odamni ijod qilishga
undaydi.

1. "Do'stimning kitob o'qishini tingladim" jumlasidan gapning bosh bo'laklarini toping. Bosh bo'laklar qoidasini takrorlang.
2. "Do'stimning kitob o'qishini tingladim" jumlasidan ikkinchi darajali bo'laklarni toping. Ikkinchi darajali bo'laklar qoidasini takrorlang.



Qoidani yod oling.

Ega va kesim gapning **bosh bo'laklaridir**. Ular birgalikda gapning asosini tashkil etadi.

Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo'lak **ega** deyiladi. Eganing tagiga bir to'g'ri chiziq (————) chiziladi.

Gapning egasi nima qilganini bildirgan bo'lak **kesim** deyiladi. Kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq (=====) chiziladi.

O'quvchilar dars tayyorladilar.

Bu gapda **o'quvchilar** (Kimlar?) – ega, **tayyorladilar** (Nima qildilar?) – kesim.



100-mashq. Uch guruhga bo'linib, gaplar tuzing.

EGA

1-guruh

(Kim? Kimlar?)

o'quvchi o'qituvchi direktor

EGA

2-guruh

(Nima? Nimalar?)

sandiq kitob yulduz

KESIM

3-guruh

(Nima qildi?)

o'qidi tingladi tekshirdi



101-mashq. Matndan “Kim?”, “Nima qildi?” so'roqlariga javob bo'luvchi bo'laklarni topib yozing.

Haqiqiy do'st sening tashvishlaringga sherik bo'ladi. Boshingga kulfat tushganda yordam beradi. Sen sirlaringni, hech kim bilmaydigan ishlaringni boshqalarga ishonmasliging mumkin, biroq do'stingga ishonasan.

Do'stlik birdaniga paydo bo'lmaydi. Insonlar uzoq vaqt bir-birlarini o'rganib, tushuna olganlaridan so'nggina bu rishta bog'lanadi. Haqiqiy do'stlar hamisha bir-birlariga yordam beradilar, ashvishlariga sherik bo'ladilar.





102-mashq. Har bir faslga mos ikkitadan gap tuzing. Ega va kesimni topib, tagiga chizing.



103-mashq. Chiziqiar o'rniga gapning mazmuniga mos so'zlar qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Qushlar bahorda _____.
2. Bolalar musiqa _____.
3. _____ kasallarni davolaydi.
4. Javlon musiqa to'garagiga _____.
5. Hozir _____ javon yasashni o'rganishyapti.
6. _____ dala ishlarini boshladilar.

Mundarija:

1-dars. NUTQ	
Nutq	6
2-dars. MATN	
Matn	12
3-dars. TOVUSHLAR VA HARFLAR	
Tovushlar va harflar	17
4-dars. Unli tovushlar va harflar	22
5-dars. Undosh tovushlar va harflar	27
6-dars. Jarangli va jarangsiz undoshlar	33
7-dars. Talaffuzda tushib qoladigan va yonma-yon kelgan undoshlar	38
8-dars. Gap va uning turlari	45
9-dars. Darak gap	49
10-dars. Buyruq gap	53
11-dars. So'roq gap	57
12-dars. So'roq gaplarni mustahkamlash	62
13-dars. His-hayajon gaplar	67
14-dars. His-hayajon gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi	70
15-dars. GAP BO'LAKLARI	
Gap bo'laklari	74
16-dars. Gapning bosh bo'laklari	79

Darslik holati haqida ma'lumot

N ^o	O'quvchining F.I.Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda
yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan
quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi**

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

UO'K: 811.512.133(075.3)

KBK: 81.2O'zb-922

T 60

ISBN 978-9943-9684-1-7

M.E.Toirova

Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. /
M. Toirova – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 88 b.

Toirova Muhabbat Ermatovna

Ona tili

3-sinf

I qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"

Toshkent – 2023

Muharrir

Badiiy muharrir

Musahhah

Rassomlar:

Kompyuterda sahifalovchi

M.Nishonboyeva

A.Sobirov

X.Serobov

G.Jurayeva, M.Sulaymonova

M.Zaimbetov

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 10.07.2023-yilda original-maketdan
bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 15 n/shponli.

"Arial" garnitulasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz.

Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8.

Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-308.

"O'zbekiston" NMUda chop etildi.

@ELEKTRON_DARSLIKBOT dan yuklab olindi.

